

SUD TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ergashev Aziz Adilovich

Fargʻona yuridik texnikum direktori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17450041>

Аннотация. Ушбу тезисда муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси одил судлов тизимини ривожланган демократик давлат қаторига олиб чиқиш борасида амалга оширилаётган ислохотлар, малакали кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш мақсадида қабул қилинаётган норматив ҳуқуқий ҳужжатлар хусусида фикрлар юритилган.

Kalit soʻzlar: одил судлов, малакали кадрлар, суд тизими, профессионал судьялар, Odil sudlov akademiyasi, ilmiy-tadqiqot muassasasi, interfaol oʻqitish uslublari.

Аннотация. В данном тезисе автор рассуждает о реформах, осуществляемых для вывода системы правосудия Республики Узбекистан в ряд развитых демократических государств, нормативно-правовых актах, принимаемых в целях совершенствования системы подготовки квалифицированных кадров.

Ключевые слова: правосудие, квалифицированные кадры, судебная система, профессиональные судьи, Академия правосудия, научно-исследовательское учреждение, интерактивные методы обучения.

Abstract. In this thesis, the author discusses the reforms being carried out to bring the justice system of the Republic of Uzbekistan into the ranks of developed democratic states, as well as the legal acts adopted to improve the system of training qualified personnel.

Key concepts: justice, qualified personnel, judicial system, professional judges, Academy of Justice, research institution, and interactive teaching methods.

Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasida Oʻzbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi qatʼiy belgilab qoʻyilgan.

Albatta, mazkur qoida demokartik davlatga xos boʻlgan muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasida hokimiyatlar boʻlinish prinsipiga amal qilingan holda, sud hokimiyati hokimiyatning mustaqil tarmogʻi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu borada mamlakatimizda xalqaro huquq talablariga javob beradigan huquqiy mexanizm ham, qonunchilik bazasi ham yaratildi. Mustaqillikdan keyin Oʻzbekiston Respublikasida sud hokimiyatining nufuzi va obroʻsini oshirish, mustaqilligini taʼminlash borasida tizimli va izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu oʻrinda Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 16-yanvardagi PF-12-son “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi¹, 2023-yil 16-yanvar PF-11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi² qabul qilingan farmonlarni yodga olish maqsadga muvofiqdir.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-12-son “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358913>.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvar PF-11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358976>.

Mazkur farmonlar mazmunida sud tizimida yuz beradigan islohotlar mustahkamlab qo'yildi.

Sud-huquq tizimining jadal isloh qilinishini ta'minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish uchun 2023-2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar dasturi ham tasdiqlandi.

Strategiyaning ahamiyatli jihati shundaki, unda odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifasi etib "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish, adolatli sud qarorlarini qabul qilishga erishish orqali yurtdoshlarimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Endilikda fuqarolar shu jumladan, tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qilishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilib, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tenglik tamoyillarini to'laqonli amalga oshirish, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish ham muhim vazifa sifatida belgilab olindi.³ Tabiiyki, bunday o'zgarish va yangilanishlar adolatli davlat barpo etilayotgan yurtimizda insonlarning sud tizimini o'zining eng ishonchli himoyachisi sifatida his qilishiga mustahkam zamin yaratadi.

Bu jarayonlarda sudlar faoliyatining huquqiy hamda moddiy texnik bazasini rivojlantirish bilan bir qatorda sud tizimi uchun yuqori malakali huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uzviyligini ta'minlash orqali professional sudyalor korpusini shakllantirish bilan bog'liq masalalar ham alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan joriy yilning 21-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-141-sonli "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni⁴ qabul qilindi. Ushbu farmon bilan quyidagilar sud-huquq sohasida malakali kadrlar tayyorlashning yangi tizimini joriy etishdagi ustuvor maqsadlar sifatida e'tirof etildi: jumladan, sud tizimi uchun har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va zarur kasbiy ko'nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish; sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudya va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish, rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo'lgan sudyalarni qayta tayyorlash, ta'lim oluvchilarda sudyalik kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish; bo'lajak sudyalarda mustaqil, xolis, beg'araz, faqat qonunga tayangan holda va adolat bilan ish yuritishning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol o'qitish uslublarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish; tinglovchi va talabalarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ta'lim jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy qilish; sudyalik lavozimlariga nomzodlar, sudya va sud apparati xodimlarida zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish; sud faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek, sud-huquq sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

³ O.Karimov. Odil sudlov – insonparvarlik va adolat ustuni. https://uza.uz/uz/posts/odil-sudlov-insonparvarlik-va-adolat-ustuni_447134.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustda PF-141-son "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7696594>.

o'quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan idoralararo tajriba almashish, shuningdek, sud tizimi uchun huquqshunos kadrlar tayyorlovchi, shu jumladan, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash va sudyalarning malakasini oshirishga ixtisoslashgan xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Ushbu farmon doirasida amalga oshirilayotgan sud tizimida malakali kadrlar tayyorlash takomillashtirishga qaratilgan muhim islohotlardan biri sifatida Sudyalarning oliy maktabi faoliyatini tubdan isloh qilish, ya'ni Sudyalarning oliy kengashi huzuridagi Sudyalarning oliy maktabi negizida O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasini tashkil etilganligini ta'kidlash joiz. Endi ushbu Akademiya Sudyalarning oliy kengashi huzurida faoliyat yurituvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida faoliyat yuritadi, kasbiy qayta tayyorlash kurslarida sud majlislarini real vaqt rejimida kuzatish va sudyaning protsessual harakatlarini tahlil qilish imkonini beruvchi "virtual sud" mashg'ulotlari joriy etiladi, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'quv darslari tashkil etiladi, kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tugatganligi to'g'risidagi sertifikatga ega bo'lgan shaxslar arizasiga asosan bo'sh sudyalik lavozimlariga o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etadilar.

Bundan tashqari ushbu farmon bilan sudyalarni qayta tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, akademiya malaka oshirishning yangicha uslublarini tatbiq etish, akademiya o'qitishni tashkil etish, akademiya faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog'liq bir qator ustuvor vazifalar ham belgilab berildi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan farmonlarda ko'rsatib berilgan ustuvor yo'nalish hamda vazifalar sudyalarning chinakam mustaqilligi ta'minlanishi, ularning ishiga har qanday aralashuv qat'iy jazolanishi, sudyalarning xavotirsiz ishlashi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilishi belgilangani ham sud-huquq islohotlarini yangi va sifatli bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Eng asosiysi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlari yanada kuchaytirilib, ish bo'yicha barcha holatlar sud tomonidan har tomonlama va to'liq tekshirilishi, dalillarga xolisona baho berilishi, huquq-tartibot idoralarining tamomila yangicha ishlashi va xalqimizning sudlarga bo'lgan qat'iy ishonchini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-12-son "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358913>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvar PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358976>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustda PF-141-son "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7696594>.

5. O.Karimov. Odil sudlov – insonparvarlik va adolat ustuni. https://uza.uz/uz/posts/odil-sudlov-insonparvarlik-va-adolat-ustuni_447134.
6. B.Toshev. Odil sudlovni ta'minlashning institutsional asoslari.
7. <https://uzmarkaz.uz/uz/news/odil-sudlovni-taminlashning-institutsional-asoslari>.